

FE'LLARNING BO'LISHSIZ SHAKLLARIDA NEYTRALLASHUV

Oybek Tojiboyevich Eshonqulov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

3-kurs tayanch doktoranti

eshonqulov@navoiy-uni.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi fe'llarning bo'lishsiz shakllarida neytrallashuv hamda ularning nutqiy qo'llanishda o'zaro zidlikni hosil qilishi masalasi va o'zbek tilida *bor* va *yo'q* so'zlarida neytrallashuv *-mi* yuklamasi ta'sirida yuz berishi, ular erkin almashinib qo'llanish xususiyatiga tahlil etildi.

Kalit so'zlar: Fe'l so'z turkumi, deyxsis, ziddiyat, zidlanish munosabati, sintaktik neytrallashuv, polifunksional so'z.

АННОТАЦИЯ

В данной статье был проанализирован вопрос о нейтрализации в безударных формах глаголов узбекского языка и их противопоставлении в разговорной речи, а также о том, как нейтрализация в узбекских словах "есть" и "нет" происходит под влиянием нагрузки "-ми", характер их взаимозаменяемости.

Ключевые слова: Глагольное словосочетание, дейксис, противоречие, отношение противопоставления, синтаксическая нейтрализация, полифункциональное слово.

ABSTRACT

This article considered an issue discussion in neutralization in forms of Uzbek verbs and the formation of the interaction in their speech circular use. It's analyzed that in the words "bor" (there is/are) and "yo'q" (there isn't/aren't) in Uzbek, neutralization occurs under the particle of "-mi". They also focused on the nature of being used freely.

Keywords: Verb phrase, deixis, contradiction, relation of opposition, syntactic neutralization, polyfunctional word.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida til sathi birliklarining ichki tuzilishidagi umumiy o'xshash va zidlanishga asos bo'lgan



farqlanuvchi jihatlarini aniqlash, o'xshashliklarning yagona belgiga asoslanishi, ziddiyatlarning esa bir-biriga muvofiq kelmaslik tamoyili asosida yuzaga chiqishi qonuniyatlarini o'rganish har doim markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Til sathi birliklarini til-nutq zidlanishida tadqiq etish lisoniy birliklarning bir qarashda ilg'ab bo'lmaydigan, faqat nutqiy qo'llanishda yuzaga chiqadigan semantik, funksional-uslubiy, konnotativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlashga imkon berishi ma'lum.

Adabiyotlar tahlili: Dunyo tilshunosligida til birliklarining zidlanishga asos bo'lgan farqli belgilarining muayyan nutqiy qo'llanishda neytrallashuvi muammosi dastlab fonologik sath doirasida tekshirildi. Xususan, bu masalaga ilk bor funksional grammatikada N.S.Trubeskoy, keyinchalik L.I.Bogoraz-Buxman, V.A.Vinogradov, V.M.Beldiyan, V.K.Juravlyovlar; o'zbek tilshunosligida esa dastlab A.G'ulomov, keyinchalik A.Nurmonov, A.Abduazizovlar munosabat bildirishdi. [1]Keyingi yillarda o'zbek tili fonemalari zidlanish belgisining neytrallashuvi muammosi D.Nurmonova tomonidan monografik aspektda tadqiq etildi. [2]

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tili morfologik birliklarida zidlanish uchun asos bo'lgan belgining yo'qolishi va neytrallashuvi muammosi ilk marta maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan;

o'zbek tilidagi morfologik birliklar nutqda qo'llanganda zidlanish uchun asos bo'lgan belgisini yo'qotib, zidlanuvchi a'zoga nisbatan neytrallashuvi qonuniyatlari ochib berilgan;

morfologik birliklarda neytrallashuv hodisasining yuz berishi sabablari aniqlangan, neytrallashuvni yuzaga keltiruvchi omillar aniqlangan;

nutqda morfologik birliklar, xususan fe'l so'zlar neytrallashuvining funksional-uslubiy jihatlarini ochib berilgan;

o'zbek tilida fe'l so'z turkumlari misolida tranpozitsiya hodisasi morfologik neytrallashuvni yuzaga keltirishi

Tilda morfologik neytrallashuv fe'llarning bo'lishsiz shakllarida ham yuz beradi. Fe'llarning bo'lishsiz shakllari gap tarkibida qo'llanganda bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotganda neytrallashuvi kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida fe'llarning neytrallashuvi masalasi maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlarda bu hodisaga munosabat bildirib o'tilgan. Jumladan, taniqli olim

A.Nurmonov sintaktik sathda yuz beradigan neytrallashuv haqida fikr yuritib, ravishdosh shakllarida kuzatiluvchi neytrallashuv masalasiga munosabat bildiradi. Uning fikricha, “Ravishdoshning *-b (-ib)*, *-guncha* (va uning fonetik variantlari) formalaridan ifodalangan ergash gapning kesimi yoki ravishdosh oborotlar tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra oppozitsiyaga kirishganda,

<i>-b (-ib)</i>	<i>-may</i>
	<i>-masdan</i>
<i>-guncha</i>	<i>-maguncha</i>

kabi oppozitiv qatorlarni hosil qiladi. Bu ularning doimiy oppozitsiyasidir. Ayrim hollarda oppozitsiya a‘zolaridagi ana shunday doimiy munosabat buzilishi mumkin. Bu vaqtda tasdiq va inkor qatorga mansub a‘zolarida oppozitiv belgi yo‘qolib, bir tasdiq mazmun atrofida birlashadi va mazmunan bir paradigmani hosil qiladi. Tasdiq va inkor qatorlar o‘zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘ladilar. Masalan:

<i>Qora qishda to‘y qilmay,</i>	}	<i>battar bo‘lgur, nokas gov</i>
<i>Qora qishda to‘y qilib,</i>		

(A. Oripov)” [3]

Darhaqiqat, ravishdoshning *-guncha* shakli *-maguncha* shakli bilan, *-b (-ib)* shakli *-may*, *-masdan* shakllari bilan bo‘lishli-bo‘lishsizlikni ifodalashiga ko‘ra oppozitiv munosabatda bo‘ladi. Ba‘zan ravishdoshning bo‘lishsizlikni ifodalovchi *-maguncha*, *-may*, *-masdan* shakllari bo‘lishli shakllariga nisbatan zidlanishga asos bo‘lgan belgisini yo‘qotib, neytrallashadi. Masalan:

O‘sha voqeadan keyin to Nozima uygakelmaguncha, kishi bilmas, yo‘l poylaydigan odat chiqardi. (J.Ergasheva. «Qir ustidagi ayol»)

Ushbu gapda qo‘llangan *kelmaguncha* ravishdoshi *kelguncha* bo‘lishli shakli bilan inkor-tasdiqni ifodalashiga ko‘ra zidlanadi. Ammo bu gapda *kelmaguncha* ravishdoshi inkorni emas, tasdiqni ifodalashga xizmat qiladi. Natijada *kelguncha* bo‘lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib, u bilan erkin almashinadigan bo‘lib qolgan. Qiyoslang:

O‘sha voqeadan keyin to Nozima uygakelguncha, kishi bilmas, yo‘l poylaydigan odat chiqardi.

Bunday holat quyidagi gapda qo‘llangan *olib bermaguncha* ravishdoshida ham kuzatiladi: *Yuqoridan birov qo‘lini cho‘zgandi, haligi qo‘rqinchli tushning ta‘siridan qutulolmaganimdan cho‘chib ketdim, u to stakanchani olib bermaguncha turaverdi.* (S.Vafo. «Poezd»)

Berilgan	gapda	qo‘llangan
<i>olib bermaguncha</i>	ravishdoshi <i>-ma</i>	affiksini qabul qilgan

bo'lsa-da, inkorni emas, tasdiqni ifodalashga xizmat qilgan. Natijada zidlanish belgisini yo'qotib, neytrallashuv hodisasiga uchrangan.

Quyidagi misollarda ravishdoshning bo'lishsiz shakldagi *-may*, *-masdan* grammatik shakllari *-b (-ib)* bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib neytrallashgan:

1. *O'qqa uchramay qolishingni o'ylab, Xudo deb yurasan.* (A.Karim. "Urush ko'rgan chollar")

2. *Mo'g'ullar kelmasdan oldin bu joy obod va moddiy jihatdan boy shaharlar bo'lgan edi.* (T.Matyaqubov. "Ko'hna xorazm poytaxti Kat shahri tarixi")

Birinchi misolda qo'llangan *uchramay* ravishdoshi bo'lishli shakldagi *uchrab* ravishdoshi bilan gapda inkor-tasdiqni ifodalashga ko'ra o'zaro zidlanadi. Biroq ushbu gapda bunday zidlik munosabati yuzaga chiqmaydi. *Uchramay* ravishdoshi bo'lishsiz shaklda bo'lsa-da, gapda tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Bu holat ushbu ravishdoshning *uchrab* ravishdoshiga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, u bilan erkin almashinib qo'llana olishini anglatadi. Bu quyidagi qiyosda yanada yorqin kuzatiladi:

O'qqa uchrab qolishingni o'ylab, Xudo deb yurasan.

Keyingi misolda qo'llangan *kelmasdan* ravishdoshi *kelguncha* bo'lishli shakldagi ziddiga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, u bilan erkin almashinib qo'llanadigan bo'lib qolgan. Qiyoslang:

Mo'g'ullar kelguncha bu joy obod va moddiy jihatdan boy shaharlar bo'lgan edi.

Bu o'rinda shuni eslatib o'tish joizki, ravishdoshning *-may*, *-masdan* shakllari har qanday holatda ham bo'lishli shakldagi *-b (-ib)* ravishdoshi bilan oppozitiv munosabatini yo'qotavermaydi. Masalan, "*O'tilgan mavzuni o'zlashtirmay, uni mustahkamlab bo'lmaydi*" gapida *-may* affiksli ravishdosh *-b (-ib)* affiksli ravishdoshga nisbatan doimiy oppozitsiyasini saqlab qoladi.

Xuddi shunday, o'zbek tilida *-guncha*, *-maguncha* shaklli ravishdosh o'ramlar oppozitsiyasida ham doimo neytrallashuv qayd etilavermaydi. Masalan: *Qo'lidan tutmaguncha nima deysan?* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Ushbu gapda qo'llangan bo'lishsiz shakldagi ravishdosh o'rami bo'lishli shakliga nisbatan doimiy zidlanish belgisini saqlab qolgan. Bu holat quyidagi gapda ham kuzatiladi:

Qamatmaguncha qo'ymayman, deyapti. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Quyida berilgan gaplarda ham bo'lishsiz shakldagi ravishdoshlarda neytrallashuv hodisasi kuzatilmaydi:

1. ... *Oradan bir soatcha vaqt o'tmay mashinamiz silkinib-silkinib o'chib qoldi.* (S.Vafo. "Ustyur")

2. *Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Hamid Z.Hayitboev ko'rsatgan hovliga kirdi.* (T.Qosimov. "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman")

Berilgan gaplarda qo'llangan *o'tmay*, *o'tmasdan* fe'l shakllari *vaqt* so'ziga bog'lanib, oradan ma'lum muddat o'tmaganligini anglatadi. Demak, bu gaplarda ushbu fe'llar bo'lishsizlikni anglatgan va bo'lishli shakldagi *o'tib* fe'li bilan oppozitsiyaga kirishadi.

Shu o'rinda bo'lishsiz shakldagi fe'llarning qanday vaziyatda bo'lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo'qotib, neytrallashuvi masalasiga aniqlik kiritish lozim bo'ladi.

Taniqli tilshunos olim A.Nurmonovning fikricha, "*Qora qishda tuy qilmay, battar bo'lgur, nokas gov*" gapida *qora qishda to'y qilmay* konstruksiyasi ikkilamchi funksiyada qo'llangan bo'lib, buni gapning keyingi *battar bo'lgur* qismi ko'rsatib turadi. Agar shu qism gapdan olib tashlansa, u vaqtda ravishdosh oborot doimiy oppozitsiyasini saqlaydi, ravishdosh oborotning transpozitiv holatda qo'llanilayotganini kontekst belgilaydi. [4]

Ma'lum bo'ladiki, bo'lishsiz shakldagi ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishi neytrallashuvni yuzaga keltirgan. Biroq olim bu o'rinda *to'y qilmay* konstruksiyasining ikkilamchi funksiyada qo'llanishiga turtki bo'lgan omil haqida fikr yuritmaydi.

Nutq jarayonida inkor shakldagi fe'l orqali tasdiq mazmunini ifoda etish axborotning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda qo'sh inkor orqali qat'iy tasdiqning ifodalanishi haqidagi xulosalar ham buni dalillaydi. A.Oripov ham qora qishda to'y qilish haqidagi axborotni ta'sirchan bayon etishda inkor shakldagi ravishdosh shaklidan foydalangan va bu bilan ifodada ta'sirchanlikka erishgan. Bu holat ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishiga olib kelgan.

Anglashiladiki, nutq egasining pragmatik maqsadi ba'zi til birliklarining doimiy vazifasidan chekinishiga va oqibatda ziddiyatdagi a'zoga nisbatan neytral holatga kelib qolishiga sababchi bo'ladi.

Neytrallashuv hodisasi gapda to'siqsizlik munosabatini ifodalovchi buyruq-istak maylidagi bo'lishsiz fe'llarda ham kuzatiladi. Masalan:

1. ... *Ikki tilni aralashtirmay gapirishini qancha **tayinlamay**, u “yo‘q” deya xarxasha qilardi.* Gazetadan.

2. *Biroq ushbu tabiblar u kishini davolash va muolaja qilishga qanchalik **urinishmasin** va kuch-g‘ayrat **sarflashmasin**, Alisher Navoiy ahvolidagi yaxshilanish va tuzalish yuz bermadi...* (I.Sulton. “Alisher Navoiy”)

Birinchi gapda qo‘llangan *tayinlamay* fe‘li 1-shaxs buyruq-istak maylidagi bo‘lishsiz fe‘l hisoblanadi. Bu fe‘l orqali gapda to‘siqsizlik munosabati ifodalangan bo‘lib, bu munosabatni ifodalovchi bo‘lishli shakldagi *tayinlasa ham, tayinlasa-da* fe‘llari bilan oppozitsiyaga kirishadi. Ammo bu oppozitiv munosabat *tayinlamay* fe‘lining zidlanish uchun asos bo‘lgan belgisini yo‘qotishi, ya‘ni inkorni ifodalamasligi natijasida buziladi. Buning oqibatida *tayinlamay* fe‘li *tayinlasa ham, tayinlasa-da* fe‘llari bilan erkin almashinib qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘ladi. Qiyoslang:

...*Ikki tilni aralashtirmay gapirishini qancha **tayinlasa ham (tayinlasa-da)**, u “yo‘q” deya xarxasha qilardi.*

Keyingi gapda esa 3-shaxs buyruq-istak maylidagi *urinishmasin, sarflashmasin* bo‘lishsiz fe‘llari qo‘llangan. Bu fe‘llar orqali ham gapda to‘siqsizlik munosabati ifodalangan. To‘siqsizlik munosabati bu fe‘llarning *urinishsa ham urinishsa-da, sarflashsa ham, sarflashsa-da* bo‘lishli shakllari orqali ham ifodalanadi. Farqli jihati shundaki, bo‘lishsiz fe‘llar gapda inkorni, bo‘lishli fe‘llar tasdiqni ifodalashga xizmat qiladi. Gapda bu farqning yo‘qolishi, ya‘ni bo‘lishsiz shakldagi fe‘llarning ham tasdiqni ifodalashi ularning neytrallashuvini ko‘rsatadi.

Neytrallashuv hodisasi fe‘llarning buyruq-istak maylidagi boshqa shakllarida ham kuzatiladi. Masalan, quyidagi gaplarda buyruq-istak maylining -*masin* affiksli bo‘lishsiz shakllari bo‘lishli shakliga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib neytrallashgan:

1. *Alplar qanchalar bosamiz **deyishmasin** “Tur! Tur!” deb turardi.* (I.Sulton. “Bilga hoqon”)

*Alplar qanchalar bosamiz **deyishsa ham**, “Tur! Tur!” deb turardi.*

2. *Bu shunga dalolatki, bir mulkning yagona shaxsi har qancha davlatmandu **olim bo‘lmasin**, har qancha saxovat **ko‘rsatmasin**, bir o‘zi bu ijtimoiy yechimlarni hal etish uddasidan chiqolmaydi!* (A.Fitrat. “Najot yo‘li”)

*Bu shunga dalolatki, bir mulkning yagona shaxsi har qancha davlatmandu **olim bo‘lsa ham**, har qancha saxovat **ko‘rsatsa-da**, bir o‘zi bu ijtimoiy yechimlarni hal etish uddasidan chiqolmaydi!*

Xuddi shunday, bo‘lishli shakldagi bu kabi fe‘llar bo‘lishsiz shaklidagi ziddi bilan erkin almashinib qo‘llana oladigan barcha holatlarda bir-biriga nisbatan zidlanish belgisini yo‘qotib, neytrallashganligi anglashiladi. Qiyoslang:

*Ammo, vatanimizni jaholat xarob qildi, g‘aflat dinimizni zaif qildi, deb har qancha faryod **ursangiz ham**, qilchalik g‘am chekmaydilar.* (A.Fitrat. “Najot yo‘li”)

*Ammo, vatanimizni jaholat xarob qildi, g‘aflat dinimizni zaif qildi, deb har qancha faryod **urmang**, qilchalik g‘am chekmaydilar.*

Demak, fe‘llarning turli grammatik shakllari gap tarkibida bo‘lishsiz shaklda qo‘llanganda muayyan omillar hisobiga bo‘lishli shakli bilan zidlanish belgisini yo‘qotib, neytrallashishi mumkin.

Til birliklarining nutq jarayonida neytrallashuviga, qayd etilganidek, turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida qayd etilgan bo‘lishsiz shakldagi ravishdoshlarning neytrallashuviga nutq egasining kommunikativ maqsadini amalga oshirishga yo‘naltirilgan *-ma* affiksining ikkilamchi vazifasi sabab bo‘lganligi ko‘rsatildi.

Til birliklarining neytrallashuviga maxsus leksik birliklar, kontekst, vaziyat kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, *har nima* (*har nimani, har narsani*) belgilash va *uni-buni* ko‘rsatish olmoshlarining zidlanish belgisi yo‘qolib, neytrallashuviga bu olmoshlarning nutqda qanday predmetga ishora qilayotganligi muhim o‘rin tutadi. Quyidagi gapni tahlil qilamiz: ***Har nimani gapiraverma. – Uni-buni gapiraverma.***

O‘zbek tilida *har nima* olmoshi umumdan ajratilgan narsa-predmetga ishora qilish vazifasini bajaradi. Ammo «*Har nimani gapiraverma*» misolida gapirish harakati *har nima* olmoshi bevosita ishora qilgan narsa-predmetga nisbatan qo‘llanmagan. Bu gapda *har nima* olmoshi turli predmetlar (*gap, xabar kabilar*)ga ishora qiladi. Shu sababli bu olmosh «turli narsalar» ma’nosini anglatuvchi *uni-buni* olmoshi bilan erkin almashinib qo‘llana oladi”. [5]

Anglashiladiki, neytrallashuv *har nima* olmoshining qanday vazifa bajarayotganligi, nimaga ishora qilayotganligi bilan bog‘liq holda yuz beradi.

Bo‘lishsiz fe‘llarning neytrallashuvida ham ba’zan ayrim leksik birliklarning roli sezilarli bo‘ladi. Masalan, *Maqsud, biz tashlab chiqqan ona diyori ohanrabodek o‘ziga **qanchalar chorlamasin**, u yoqda siz aziz tug‘ishganlarimiz ko‘zlarimiz to‘rt bo‘lib, yo‘llarimizga **qancha ko‘z tutmanglar**, hijratni ixtiyor etdik.* (M.Mansur. «Judolik diyori») gapida *qanchalar* leksemasining ta’sirida *chorlamasin* fe‘li, *ko‘z tutmanglar* iborasi inkorni ifodalamaydi. Aksincha,

ular bu so‘z ta‘sirida tasdiqni ta‘sirchan ifodalash vazifasini bajaradi.

Berilgan gapda qo‘llangan *qanchalar* leksemasi *nihoyatda ko‘p* ma‘nosini ifodalaydi. *Qanchalar chorlamasi* birikmasidan miqdor bildiruvchi *ko‘p* so‘zi tushib qolganligi sezilib turibdi. *Qanchalar* olmoshi semantik jihatdan *ko‘plik* semasiga ega bo‘lganligi bois ham *ko‘p* leksemasi bilan birika oladi.

Mantiqan yondashganda *qanchalar ko‘p* birikmasining tasdiqni anglatuvchi fe‘l kesim bilan bog‘lanishi to‘g‘ri. Bu birikmaga semantik jihatdan zid bo‘lgan *unchalar (unchalik) ko‘p* birikmasi esa inkor ifodalovchi fe‘l kesim bilan bog‘lanadi. Qiyoslang: *Qanchalar ko‘p o‘qiydi. – Unchalar ko‘p o‘qimaydi.*

Demak, *qanchalar ko‘p* birikmasi bo‘lishsiz shakldagi fe‘l kesimga bog‘langanda gapdan inkor emas, tasdiq ma‘nosi anglashiladi. Bunday holatda ushbu fe‘l kesim ikkilamchi vazifada, ya‘ni tasdiqni ifodalash uchun qo‘llanadi. Bu holat *qanchalar ko‘p* birikmasi bilan bog‘langan bo‘lishsiz shakldagi fe‘llarning zidlanish belgisini yo‘kotib, neytrallashuviga sabab bo‘ladi.

Bu jarayonni A.Nurmonov juda asosli tarzda quyidagicha izohlab bergan: “Yuqoridagi konstruksiyalarni transpozitsiyaga uchratayotgan vosita *qancha, qanchalik* so‘roq olmoshlaridir. Chunki bu olmoshlar belgining ortiqligini, harakatning takroriyiligini ko‘rsatuvchi semaga ega bo‘lib, shu semaga ega bo‘la oladigan so‘zlargagina bog‘lana oladi. Shuning uchun ham *qanchalik* belgining ortiq miqdorini ifodalovchi *ko‘p* so‘zi bilan bog‘lanib keladi. *Ko‘p* leksemasining o‘zi ham *qanchalik* leksemasi bilan birgalikda kesimning (uning qanday formada turishidan qat‘i nazar) tasdiq ma‘no ifodalashini taqozo etadi. Inkor mazmunni ifodalash uchun esa *qanchalik* leksemasini mazmunan unga zid bo‘lgan *unchalik* leksemasi bilan almashtirishga to‘g‘ri keladi”. [6]

Olimning xulosasiga ko‘ra, “Pⁿon_{bon} 1+V *masin* [7] tipidagi konstruksiyalarda tasdiq-inkor belgisiga ko‘ra oppozitsiya neytrallashgan bo‘lib, bu hodisaga konstruksiya tarkibida ikkilamchi funksiyadagi Pⁿon_{bon} ning qatnashuvi va buning natijasida butun konstruksiyaning transpozitiv funksiya bajarishga o‘tishi sababchi bo‘lgan”. [8]

Bu holat quyidagi gapda ham kuzatiladi:

Xayri qancha urinmasin, Hasan uning tasavvuridan surbetlik qilib nari ketmas edi. (S.Ahmad. «Tanlangan asarlar»)

Berilgan gapdan Xayrining *ko‘p* uringanligi ma‘nosi anglashiladi.

Bunday gaplarda *qancha* so‘zi o‘rnida *ko‘p* so‘zining qo‘llanishi ham kuzatiladi. Qiyoslang: *Xayri ko‘p urinmasin, Hasan uning tasavvuridan surbetlik qilib nari ketmas edi.*

Yuqorida aytib o'tilganidek, *qancha* so'zi semantikasida *ko'p* semasi bo'lganligi bois nutqda ulardan birini qo'llash mumkin bo'ladi. *Qancha* so'zi *qanchalar*, *qanchalik* tarzida ishlatilganda ma'no yanada kuchayadi.

Ba'zan bu vazifada *ko'pchilikka* ishora qiluvchi *kimlar*, *kim-kimlar* olmoshlari ham kelishi mumkin. Bu olmoshlar ta'sirida bo'lishsiz shakldagi fe'l kesim tasdiqni ifodalashga o'tadi. Masalan: *Bo'lmasa, hech kim nazarga ilmas bu bandargohda kimlar ishlab ketmagan, bu qirg'oqni qancha suvlar yuvib o'tmagan.* (M.Mansur. «Judolik diyori»)

Xullas, o'zbek tilida bo'lishsiz fe'llar nutqda ikkilamchi vazifada, ya'ni tasdiqni ifodalashda qo'llanganda bo'lishli shakldagi ziddi bilan doimiy oppozitsiyasini yo'qotib, u bilan neytral holga kelib qoladi.

XULOSA

1. Fe'ning *-guncha* affiksli shakli *-ma+-guncha* affiksli shakli bilan, *-b (-ib)* affiksli shakli *-may*, *-mas+-dan* affiksli shakllari bilan bo'lishli-bo'lishsizlikni ifodalashiga ko'ra ziddlik munosabatida bo'ladi. Ammo ba'zan nutqda bo'lishsizlikni ifodalovchi *-maguncha*, *-may*, *-masdan* shakllari bo'lishli shakllariga nisbatan zidlanishga asos bo'lgan belgisini yo'qotib, neytrallashadi.

2. Ravishdoshning *-may*, *-mas+-dan* affiksli shakllari har qanday holatda ham bo'lishli shakldagi *-b (-ib)* ravishdoshi bilan yoki ravishdoshning *-guncha*, *-ma+-guncha* affiksli turlari har doim ham o'zaro doimiy oppozitsiyasini yo'qotavermaydi.

3. Neytrallashuv hodisasiga bo'lishsiz shakldagi ravishdoshning ikkilamchi vazifada qo'llanishi sabab bo'ladi. Fe'llarning nutqda neytrallashuviga maxsus leksik birliklar, kontekst, nutq vaziyati kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

4. Transpozitsiya bir so'z turkumining kontekstda boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi bo'lib, o'zbek tilida ayrim mustaqil va yordamchi so'zlarning gapda ikkilamchi vazifa bajarishi natijasida yuz beradi. Bu hodisa ot, sifat, son turkumiga mansub morfologik birliklarda keng tarqalgan.

REFERENCES

1. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960; Богораз–Бухман Л.И. Фонологическая нейтрализация на уровне дифферентов и фонем в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – М., 1963; Виноградов В.А. Некоторые вопросы теории фонологических оппозиций и нейтрализации // Проблемы лингвистического анализа. Фонология. Грамматика. Лексикология. – М., 1966. – С. 13-

- 21; Бельдиян В.М. Звуковая система современного русского языка и вопросы нейтрализации фонем: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1968; Журавлёв В.К. К проблеме нейтрализации фонологических оппозиций // Вопросы языкознания. 1972. – №3. – С. 36-49; Шу муаллиф. Диахроническая фонология. – М., 1986; А.Гуломов. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке: Научные труды ТашГУ, вып. 211. – Ташкент, 1963. – С. 45-95; Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент, 1990; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 35-44.
2. Нурмонова Д. Ўзбек тилида парадигма аъзолари ўртасидаги зидланишларнинг нейтраллашуви: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 22 б.
3. Nurmonov A. Sintaktik konstruksiyalarning tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyasining neytrallashuvi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1982. – №1. – B.50-51.
4. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.
5. Eshonqulov O. O'zbek tili olmoshlari oppozitsiyasida neytrallashuv / Xorijiy tillarni o'qitishning buguni va ertasi. Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zDJTU, 2016. – B. 44.
6. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.
7. P^ron_{bon} – so'roq olmoshlarining simvoli, V– fe'l simvoli.
8. Nurmonov A. Ko'rsatilgan maqola. – B.50-51.